

de iye bolgan adamlarǵa tayarlawǵa mútáj. Bilimlendiriw óz-ózinen ruwxıy-ádep-ikramlılıq tárbiyanıń joqarı dárejesin támiyinlemeydi, sebebi tárbiya – bul adamda belgili bir shaxsıy hám sociallıq qásiyetlerdi qalıplestiriw maqsetinde oǵan sistemalı, maqsetli hám úylesimli pedagogikalıq tásir etiw bolıp tabıladı.

Solay etip, ruwxıy-ádep-ikramlılıq tárbiya joqarı oqıw orınlarındaǵı zamanagóy bilimlendiriw procesiniń ajıralmas bólegine aylanıwı kerek. Bul studentlerge házirgi zaman dúnyasında tabıslı is alıp barıwǵa qábiletli, sawatlı, keńpeyil hám juwapkershilikli, watansúygish kadrlar bolıp jetilisiwine járdem beredi.

Ádebiyatlar

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги «Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 1059-сон Қарори. 1-илова.

2. Дьячкова М.А. Духовно-нравственное воспитание как педагогическое явление. // Педагогическое образование, 2008, № 2. – С. 12-18.

3. Тишабаева Л. А. Духовно-нравственное воспитание студентов в вузах Республики Узбекистан. <https://cyberleninka.ru/article/n/duhovno-nravstvennoe-vospitanie-studentov-v-vuzah-respubliki-uzbekistan>

4. Хамукова Б.Х. Духовно-нравственное воспитание студентов как основа становления гражданского общества. // ВЕСТНИК ПГПУ. Серия № 1. Психологические и педагогические науки. – С. 76-80.

REZYUME. Maqolada ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmun-mohiyati, maqsadi, asosiy jihatlari ochib berilgan. Oliy ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tutgan o'rni va ahamiyati, talaba yoshlarning axloqiy tarbiyasining asosiy yo'nalishlari, metodlari tahlil qilingan. Ish huquqiy-me'yoriy hujjatlar va zamonaviy olimlarning tadqiqotlari tahliliga asoslangan.

РЕЗЮМЕ. В статье раскрываются сущность, содержание, цель и основные аспекты духовно-нравственного воспитания. Проанализированы роль и значение духовно-нравственного воспитания в процессе высшего образования, основные направления и методы нравственного воспитания студенческой молодежи. Работа основана на анализе нормативно-правовых документов и исследований современных ученых.

SUMMARY. The article reveals the essence, content, purpose, and main aspects of spiritual and moral education. The role and significance of spiritual and moral education in the process of higher education, the main directions and methods of moral education of student youth are analyzed. The work is based on the analysis of regulatory legal documents and research by contemporary scholars.

TEXNOLOGIYA MASHG'ULOTLARIDA O'QUVCHILARGA EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA BERISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI VA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI

J.K.Tajiyev – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

M.R.Kuryozova – *magistrant*

Urganch davlat pedagogika insituti

Tayanch so'zlar: ekologik madaniyat, ekologik ong, ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, ekologik tafakkur, AKT, virtual laboratoriyalar, multimedia taqdimotlar

Ключевые слова: экологическая культура, экологическое сознание, экологическое образование, экологическое воспитание, экологическое мышление, ИКТ, виртуальные лаборатории, мультимедийные презентации.

Key words: ecological culture, ecological awareness, ecological education, ecological education, ecological thinking, ICT, virtual laboratories, multimedia presentations.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash ekologik muammolarni chuqur anglash va bartaraf etish orqali erishiladi. Shu boisdan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya va ta'limga bo'lgan e'tibor tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, texnologiya mashg'ulotlarida bu masala dolzarb ahamiyatga ega. Texnologiya fani o'quvchilarga hayotda amaliy foyda keltiradigan, kasbiy yo'naltirilgan, ijodkorlikka asoslangan bilimlarni berishga qaratilgan bo'lib mashg'ulotlarda o'quvchilarda ekologik jihatdan xavfsiz, tejamkor, qayta ishlanadigan materiallardan buyum va mahsulotlar tayyorlashga o'rgatish muhim vazifalardan sanaladi.

Shu o'rinda ekologik atamalarni alohida izohlab o'tsak.

Ekologik ta'lim – bu o'quvchilarni tabiatni muhofaza qilish, undan oqilona foydalanish, ekologik muammolarga nisbatan ongli va faol pozitsiyani shakllantirishga o'rgatish jarayonidir.

Ekologik tarbiya – bu insonning atrof-muhitga ongli, mas'uliyatli va ehtiyotkor munosabatini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik jarayondir. Ekologik tarbiya o'z ichiga insonning tabiatga nisbatan axloqiy munosabatini

shakllantirish, ekologik qadriyatlar va hissiy-emotsional munosabatlarni rivojlantirishni oladi.

Ekologik madaniyat - kasbiy faoliyatda qaror qabul qilish uchun ekologik javobgarlikni his qilish, tabiat muhofazasidagi bilimlarga egaligi, jahon va xududiy darajada ekologik muammolarni ochishda qatnashishga tayyorgarligidir.

Ekologik ong – bu insonning tabiat, atrof-muhit va unga bo'lgan munosabati haqidagi tushunchalari, bilimlari, qadriyatlari va mas'uliyat hissining uyg'un holda shakllangan tizimidir.

Ekologik tafakkur – bu insonning atrof-muhit, tabiat va insoniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tizimli, mantiqiy va tanqidiy asosda tushunib, harakat qilish qobiliyatidir.

Asosiy qism. N.Mamatovanning “Ta’limda interfaol metodlar” adabiyotida – zamonaviy ta’lim tizimida o’quvchi faolligini oshirish, mustaqil fikrlash, hamkorlikda o’rganish, ijodiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiluvchi interfaol o’qitish metodlarini o’rganishga bag’ishlangan. Shuningdek, X.U.Otaqulovning “Ekologiya va atrof – muhit muhofazasi” (ma’ruzalar to’plami) darslik, ma’ruzalar to’plami sifatida tayyorlangan bo’lib,

“ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” fanining nazariy va amaliy jihatlarini yoritishga qaratilgan. Bunda o‘quvchilarga ekologik ta’lim va tarbiyani ham amaliy ham nazariy ravishda tushintirib boriladi.

Bugungi kunda atrof-muhit muammolari (iqlim o‘zgarishi, chiqindilar muammosi, bioxilma-xillikning kamayishi va boshqalar) ta’lim tizimida ham dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, **texnologiya** fanlari orqali o‘quvchilarda ekologik tafakkur va madaniyatni shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi. Texnologiya mashg‘ulotlari – bu amaliy faoliyatlar asosidagi darslar bo‘lib, u yerda o‘quvchilar materiallar, vositalar, texnikalar bilan ishlaydi. Bu darslar orqali nazariy bilimni amaliy faoliyatga bog‘lab, ekologik ongni shakllantirish mumkin [2].

Texnologiya mashg‘ulotlarida ekologik ta’lim-tarbiya berish uchun kompyuter texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarni tabiatga ehtiyot-korona munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi. Kompyuter texnologiyalari ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish, virtual sayohatlar o‘tkazish, ekologik muammolarni tahlil qilish uchun imkoniyat yaratadi, interfaol metodlar esa o‘quvchilarni faol qatnashishga undaydi. Bunga misol qilib, virtual laboratoriyalar, ekologik simulyatsiyalar, onlayn viktorinalar va guruhli loyihalar keltirish mumkin. Loyihalar va dars ishlanmalariga kelganda, o‘quvchilarning yoshiga mos ravishda ularni yaratish muhimdir.

Kompyuter texnologiyalari ekologik ta’limni yanada jonli, qiziqarli va tushunarli qilish imkonini beradi. Quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llanilishi mumkin:

1. AKT – bu axborotni yaratish, saqlash, qayta ishlash, uzatish va ulardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan barcha texnik va dasturiy vositalar majmuasini anglatadi.

2. Virtual laboratoriyalar – ekologik tajribalarni xavfsiz, vizual tarzda ko‘rsatish.

3. Multimedia taqdimotlar – o‘quvchilarda ekologik muammolar bo‘yicha chuqur tasavvur hosil qilish.

4. Interaktiv o‘yinlar va simulyatsiyalar – ekologik muammolarni yechishda tanlov qilish orqali mas’uliyat hisini shakllantirish.

5. Ekologik loyihalar uchun taqdimotlar tayyorlash – o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish.

Shular bilan birga quyidagi interfaol metodlar ekologik ta’limni va tarbiyani samarali tashkil qilishda keng qo‘llaniladi:

1. “Aqliy hujum” (Brainstorming) – ekologik muammolar bo‘yicha o‘z fikrini erkin ifoda etishga o‘rgatadi.

2. “Klaster” metodi – ekologik tushunchalarni guruhlash orqali tahliliy fikrlashni kuchaytiradi.

3. “Rol o‘ynash” usuli – o‘quvchilarni turli rollarda chiqish qildirish orqali ekologik muammolarga real munosabatni shakllantiradi.

4. “Debat”lar tashkil etish – turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilishga o‘rgatadi.

O‘quvchilarda ekologik tarbiyani rivojlantirish maqsadida ularga turli maqsadli loyiha ishlarni taqdim qilish zarur. Shu maqsadda “Bizning ekologik xizmatchimiz”, “Sog‘lom mahalla”, “Ekologik bog‘ yaratamiz” mavzulari asosida o‘quvchilar bilan birga loyiha ishi ishlash ularda ekologik ong, ekologik tarbiya, ekologik ta’lim tushunchalarini yanada kengroq tushinishlariga yordam beradi. Ushbu loyiha ishlarida o‘quvchilar tabiatda uchraydigan turli hayvonlar va o‘simliklar haqida ma’lumot

to‘playdilar, ularni kompyuterda animatsiya qilib yoki virtual laboratoriya asosida kichik “ekologik xizmatchi” va kichik “ekologik bog” yaratadilar va uni boshqa o‘quvchilarga taqdim etib bir-birlari bilan fikr almashadilar va mavzularni tahlil qilishadi. Shu jumladan, interfaol metodlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Quyidagi metodlar ekologik tarbiya uchun mos keladi:

Interfaol metod	Qo‘llanish misoli
“Aqliy hujum”	“Chiqindilarni kamaytirish usullari” bo‘yicha fikrlar
“Rol o‘ynash”	“Men ekologman”, “Tabiatni himoya qilaman” sahna ko‘rinishlari
“Debat”	Plastik ishlatilishi – foyda yoki zarar?
“Klaster”	Ekologik muammolar turlari va yechimlari
T-sxema	Polimer materiallarni ekologiyaga foydali va zararli tomonlari

O‘quvchilarda ekologik ongni shakllantirish maqsadida quyidagi loyihalarni amalga oshirish mumkin:

Mavzu: Kimyoviy tolalar. Kimyoviy tolalarning olinishi va xossalari.

Sinf: 7-sinf texnologiya fani

Dars turi: Yangi bilim beruvchi

Metod: Klaster, interaktiv taqdimot, muammo asosida o‘qitish

Vositalar: Kompyuter, interaktiv doska, internet, PowerPoint, ekologik plakatlari

Dars rejası:

Tashkiliy qism (5 daqiqa) – salomlashuv, davomadni aniqlash.

O‘tgan mavzuni mustahkamlash (5 daqiqa)-klaster metodi yordamida o‘tgan mavzu takrorlanadi.

Yangi mavzuni tushuntirish (15 daqiqa) – multimedia taqdimot orqali yangi mavzu tushuntiriladi.

Gruhlarda ishlash (5 daqiqa) – kimyoviy tolalar bo‘yicha T chizma ishlash va ekologiyaga tas‘irlarini yozish.

Kimyoviy tolalar		
Foydali tomonlari		Zararli tomonlari
1. Arzonligi		1.Havo o‘tkazmasligi
2. Mustahkamligi		2.Teri allergiyasiga olib kelishi mumkin
3. Yuqum va quritishga chidamli		3.Ekologiyaga zarar
4. Harsanglikka qarshi		4.Zararli moddalarni ajralishi
5. Turli sharoitga mos		5.Issiqqa chidamsizligi
6. Ranglarni yaxshi ushlaydi		6.Statik elektr yig‘ilishi
7. Yengilligi		7.Qayta ishlash qiyin

Loyiha topshirig‘i (10 daqiqa) – “Kimyoviy va tabiiy tolalarning tabiatga zarar va foydali taraflari” mavzusida kichik insho yozishadi.

Yakuniy xulosa va baholash (5 daqiqa) – raqamli test, fikr almashish.

Xulosa. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari ekologik tarbiyani yangi bosqichga olib chiqmoqda. Kompyuter texnologiyalari va interfaol metodlar orqali o‘quvchilar ekologik muammolarni chuqur anglaydi, ularni hal qilishda faol ishtirok etadi. Bu esa ularning nafaqat texnologik, balki fuqarolik jihatdan ham yetuk shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘quvchilar “Kimyoviy tolalar-

ning tabiatga zarari va foydali taraflari” mavzusidagi inshosida ular tolalarning olinishi, atrof-muhitga va ekologiyaga zarar va foydalarini o‘rganishadi va shu yo‘l bilan ular ekologiyaga ehtiyotkorona bo‘lishni va zarar yetkazmaslikni o‘rganishadi.

Texnologiya mashg‘ulotlari o‘quvchilarning nafaqat texnik ko‘nikmalarini shakllantirish, balki ularni atrof-muhitga nisbatan mas‘uliyatli va ekologik ongli shaxs sifatida tarbiyalash uchun noyob platformadir. Bugungi kunda atrof-muhit muammolarining global xarakterga ega bo‘lishi va ularning inson hayoti va tabiatga salbiy ta‘sirining ortishi, pedagoglarni yangi ta‘lim uslublari, ayniqsa raqamli texnologiyalar va interfaol metodlarni keng joriy etishga undamoqda. Kompyuter texnologiyalari ekologik ta‘limda bilimlarni yanada aniqroq, tushunarliroq va qiziqarli tarzda

yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. Multimedia taqdimotlar, virtual laboratoriyalar, interaktiv simulyatsiyalar va maxsus ekologik dasturlar yordamida o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimga ega bo‘lishadi, balki o‘zlari eksperimentlar o‘tkazib, muammolarni amaliy tomondan ham chuqurroq anglay boshlaydilar. Bu esa ularning ekologik muammolarga bo‘lgan e‘tiborini oshirib, tabiiy jarayonlarga nisbatan mehr va hurmat hissini kuchaytiradi. Shuningdek, interfaol pedagogik metodlar – loyiha asosida o‘qitish, rol o‘ynash, debatlar, muammo yechish usullari – o‘quvchilarni faollashtiradi, ularning tanqidiy fikrlash va jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bunday metodlar yordamida ekologik tarbiya jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki o‘quvchilarning hissiy-axloqiy va amaliy tayyorgarligini ham mustahkamlaydi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi «O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta‘limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 434-son Qarori.
2. Tajiyev J.K. Development of professional competences of future technology teachers by improving the educational and methodological support of folk crafts and artistic design. // Science and innovation international scientific journal volume 2 ISSUE 4 april 2023. – P. 315-322
3. Mamatova N. Ta‘limda interfaol metodlar. – Toshkent: «O‘qituvchi», 2021.
4. Otaqulov U. X. Ekologiya va atrof – muhit muhofazasi. (ma‘ruzalar to‘plami). – Qarshi, QMI, 2022.
5. Qodirov S. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. – Toshkent: TDP, 2021.

REZYUME. Maqolada texnologiya mashg‘ulotlarida o‘quvchilarda ekologik tarbiyani shakllantirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va interfaol metodlarning ahamiyati, ularni samarali qo‘llash usullari tatbiq qilingan dars ishlanmasi va loyiha ishini bajarishda amaliy faoliyatlari orqali ekologik madaniyatni va ekologik ongni rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается значение современных информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) и интерактивных методов в формировании экологического образования учащихся на уроках технологии, способы их эффективного применения, возможности развития экологической культуры и экологического сознания посредством практической деятельности при разработке поурочных планов и проектной работы.

SUMMARY. The article discusses the importance of modern information and communication technologies (ICT) and interactive methods in the formation of environmental education in students during technology classes, the methods of their effective application, the possibilities of developing ecological culture and environmental awareness through practical activities in the development of lesson plans and project work.

БАЗОВЫЕ КАЧЕСТВА СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ, ИСПОЛЪЗУЕМЫХ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

Г.Ж.Толегенова – старший преподаватель

Нукусский государственный педагогический института имени Ажиязия

Таянч сўзлар: педагогик технологиялар, рус тили, ўқувчи, педагог, танкидий-ижодий фикрлаш.

Ключевые слова: педагогические технологии, русский язык, ученик, педагог, критическое и творческое мышление, знания, умения и навыки.

Key words: pedagogical technologies, Russian language, student, teacher, critical and creative thinking, knowledge, skills, abilities.

Введение. Становление форм организации обучения происходило вместе с развитием человеческого общества. По-видимому, самой древней формой организации учебного процесса было индивидуальное обучение. Следующим этапом стал индивидуально-групповой способ обучения. К началу XVII в. эти формы организации учебного процесса уже не отвечали потребностям общества. Появились первые зачатки группового обучения, которое стало основой классно-урочной системы.

Использование педагогических технологий предусматривают моделирование жизненных ситуаций, совместное решение проблем. Исключается доминирование какого-либо участника учебного процесса или какой-либо идеи. Это учит, гуманному, демократическому подходу к модели.

Методы педагогических технологий также обеспечивают достижение целей первых трех уровней, причем более эффективно, чем это делают методы традиционной системы обучения. Хорошим подтверждением данному тезису может стать пирамида запоминания.

Одна из главных задач обучения русскому языку состоит в том, чтобы не просто передать информацию обучающимся, но и пробудить личностный мотив, развить интерес к предмету, а также стремление к речевому самосовершенствованию. Для реализации необходимо находить эффективные методы и формы работы. Педагогические технологии отвечают данному запросу, поскольку их использование позволяет достигать образовательных результатов и способствует взаимосвязанной деятельности ученика и учителя.